

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining iyul-dekabr 2022 yil faoliyati to‘g‘risida hisobot

I. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha umumiy ma’lumot.

2020 yil dekabr oyida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o‘rtasida “O‘zaro hamkorlik to‘g‘risida”gi Memorandum imzolagan.

2022 yil aprel-iyun oylari mobaynida Komplayens-nazorat departamenti jalb qilingan mustaqil maslaxatchilar bilan hamkorlikda bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini xalqaro ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirgan, jumladan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi (KQKMT) batafsil qayta ko‘rib chiqilgan;
- 20 ta ichki me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan;
- bankning tashqi va ichki omillari taxlili o‘tkazilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maqsadlar tasdiqlangan;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanib, umumiy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan;
- korrupsiyaviy xavfga yuqori lavozimlar ro‘yxati tuzilgan;
- korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ichki auditi o‘tkazilgan;
- korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja-dastur tasdiqlangan.

Bank Boshqaruvining tegishli qarori bilan Komplayens-nazorat departamenti tarkibida “Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi” tashkil etilgan va tarkibi to‘liq butlangan.

2022 yil 22-24-iyun kunlari bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining Xalqaro ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiqligini baholash maqsadida sertifikatсион organ “Cert International” tomonidan sertifikatсион audit o‘tkazilgan.

2022 yil 30 iyun kuni Bosh bank huzuridagi Amaliyot boshqarmasi, Toshkent shahar mintaqaviy filiali, Toshkent viloyat mintaqaviy filiali, Sirdaryo mintaqaviy va Mirobod filiallariga xalqaro ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiqlik sertifikati taqdim etilgan.

II. Siyosat va tartib-taomillar.

Bank Kuzatuv kengashining tegishli qarori bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha quyidagi ichki me‘yoriy hujjatlar tasdiqlangan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati (yangi tahrirda);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish Siyosati”;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Komplayens-nazorat departamenti to‘g‘risida”gi Nizom (yangi tahrirda).

Bank Boshqaruvining tegishli qarori bilan Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha quyidagi ichki me‘yoriy hujjatlar tasdiqlangan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining etika va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining korruptsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korruptsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korruptsiyaga qarshi kurash boshqaruv tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korruptsiyaga qarshi menejment tizimini nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish Tartibi;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korruptsiyaga qarshi menejment tizimini ichki auditini o‘tkazish Tartibi”;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlari”;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning xodimlar bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha Qo‘llanma”;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda biznes-xamkorlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma”;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Korruptsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi faoliyati to‘g‘risidagi Reglament”.

Mazkur hujjatlar bankning “Intranet” dasturiga joylashtirilgan, barcha xodimlar ulardan ish faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida bankda 601 ta xavf - xatarlar aniqlanib, ulardan 477 tasi maqbul (past), 69 tasi o‘rtacha va 55 tasi yuqori xavf-xatarlar deb belgilangan hamda 2022 yil may oyida yaxlit korrupsiyaviy xavf - xatarlar xaritasi tasdiqlangan.

Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funktsiya va lavozimlar ro‘yxati hamda 2022 yil korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi maqsadlar belgilangan va o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha Reja-dastur tasdiqlangan.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti” talablariga muvofiq bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablari o‘zgarishida amalga oshirilishi belgilangan.

2022 yil 31 agustdagi O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qarori bilan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” tasdiqlangan.

Shu munosabat bilan korrupsiya xavf-xatarlarni baholash loyihasi tayyorlanib “E-Anticor.uz” elektron platformasiga joylashtirilgan.

IV. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.

Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvining tegishli qarorlari bilan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish Siyosati”;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjatlar bilan bankda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartiblari, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

Bankda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda xodimlar tomonidan deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan va bugungi kunda amalga oshirilib kelinmoqda:

- vakant bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilishda;

- yillik deklaratsiyalar;

- real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan fakti bo‘yicha deklaratsiyalar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi 2022 yil II-chorak yakuniga qayta ko‘rib chiqilib, Xalqaro ISO 37001:2016 standart talablariga muvofiqlashtirilganligi sababli 2021 yil yakuni bo‘yicha yillik deklaratsiyalar taqdim etilmagan ularning taxlili amalga oshirilmagan.

V. Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish.

Bankning biznes-xamkorlari bilan tuzilgan shartnomalarga “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlar”i kiritilgan. Shuningdek, bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlar:

bank tizimida bank hisobvarag‘i shartnomasi va mijoz hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalarni hamda bank tizimida kredit va kredit ta‘minoti bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalarni tuzish bo‘yicha tavsiyalarda;

kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga;

xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarga mas‘ullar tomonidan kiritilishi ta‘minlanmoqda.

VII. Ishga nomzodlarni tekshirish.

Bank Boshqaruvining tegishli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma” talablariga muvofiq 2022 yil iyun-dekabr oylarida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Bosh ofisiga 59 nafar xodim ishga qabul qilindi, hamda 59 nafar xodim rotatsiya qilindi (jami 118 nafar xodim). Nomzodlarni tekshirish yuqoridagi Yo‘riqnomaga muvofiq amalga oshirildi.

VIII. Ta’lim va kommunikatsiya.

Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ongini yanada oshirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida 2022 yilda o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja - dastur tasdiqlangan va belgilangan muddatlarda o‘quv-treninglar o‘tkazilgan.

Bank tizimida 2022 yil mobaynida Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi qoidalari va talablari bo‘yicha jami – 3634 ta xodimlari o‘qitilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablarining o‘zlashtirilganlik darajasini tekshirish maqsadida 1477 nafar xodimlar o‘rtasida test sinovlari o‘tkazilgan.

131 rahbar lavozimdagi bank xodimlarga ISO 37001:2016 xalqaro standart asosida maxsus treninglar o‘tkazilgan.

2022 yil 7 dekabr kuni – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Bankda “Ochiq eshiklar kuni” o‘tkazilgan. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan xamkorlikda tashkil etilgan tadbirda bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tadbir ishtirokchilariga ma’lumot taqdim etilgan, joriy etilgan tizim bilan batafsil tanishtirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas’ul xodimlari ishtirokida 3 ta treninglar o‘tkazilgan;

Bank Boshqaruv Raisining korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan xodimlar va mijozlarga yo‘llangan murojaati bankning rasmiy veb-sayti hamda “Intranet” dasturiga joylashtirilgan;

Bankka ishga qabul qilingan yangi xodimlarga Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yuzasidan doimiy tarzda “Welcome Training” dasturi bo‘yicha o‘quv-treninglar o‘tkazilib kelinmoqda;

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek mijoz va xodimlarning fikrini o‘rganish maqsadida bankning rasmiy veb-saytida “So‘rovnoma” joylashtirilgan;

Bank axborot xizmatining kanali hamda ijtimoiy tarmoqlarda korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari to‘g‘risida e‘lonlar joylashtirilgan;

xodimlarga aloqa kanallari va ular orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabarlar yuborish imkoniyati haqida eslatmalar yuboriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarma xodimlari:

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan, KPMG Xalqaro auditorlik tashkiloti hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tarraqiyot Dasturi (BMTTD) hamkorligida tashkil etilgan “Davlat muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va joriy etish” mavzusidagi treningda;

- Buyuk Britaniyaning Xalqaro Komplayens Assotsiatsiyasi (International Compliance Association - ICA) tomonidan tashkil etilgan o‘quv kurslarida ishtirok etishgan va sertifikatlarga ega bo‘lishgan.

IX. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.

2022 yil mobaynida korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida jami 9 ta murojaat kelib tushgan, ulardan hududlar kesimida:

Toshkent shahri - 4 ta;

Samarqand viloyati - 2 ta;

Qashqadaryo viloyati - 1 ta;

Surxondaryo viloyati - 1 ta;

Xorazm viloyati - 1 ta xissasiga to‘g‘ri keladi.

Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari. Murojaatlar o‘rnatilgan tartibda o‘rganib chiqilgan va tegishli qarorlar (choralar) qabul qilingan.

X. Monitoring va nazorat.

2022 yil yakuniga OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bank xodimlarining korrupsion xatti-xarakatlari haqida ma’lumot mavjud emas;

barcha aloqa kanallar soz va ish faoliyatida;

bankda aloqa kanallari orqali kelib tushadigan murojaatlar reyestri yuritilgan.

2022 yil uchun mo‘ljallangan yillik nazorat tadbirlari rejasiga muvofiq yil davomida Bank tarkibiy, shu jumladan hududiy tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi tartib-tamoyillari bo‘yicha xodimlarning bilim darajasini aniqlash maqsadida monitoringlar o‘tkazilgan.

